

O'RTA MAKTABLARDA XORIJIY MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O'QISHNI O'RGATISH

Meliqo'ziyeva Hodisa Xusanboy qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn ustida ishlash orqali o'rta maktablarda o'quvchilarni o'qishni o'rgatishga, chet tilidagi matnlarni to'g'ri tushunishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matn, murakkab matnlar, respektiv nutq, reproduktiv nutq, matn ustida ishlash, til materiali.

Аннотация: В данной статье говорится об обучении старшеклассников чтению, правильному пониманию иноязычных текстов, творческому мышлению путем работы над текстом.

Ключевые слова: текст, сложные тексты, соответствующая речь, репродуктивная речь, работа над текстом, языковой материал.

Annotation: This article talks about teaching high school students to read, correctly understand foreign language texts, and creative thinking by working on the text.

Keywords: text, complex texts, respective speech, reproductive speech, work on the text, language material.

Matn nutqiy jarayon mahsuli bo'lib, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, supersintaktik butunliklardan tashkil topgan, leksik-grammatik, mantiqiy, uslubiy jihatdan shakllangan, aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Har qanday matn ma'lum bir mazmunni tashish uchun xizmat qiladi, o'z xususiyatiga ko'ra turli axborotlarni etkazadi. Matn nutq korinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzulish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki va yozma ijod namunasi hisoblanadi.

O'qishni o'rgatish — nutq faoliyati turini o'rgatish deb qaralmog'i lozim. Ushbu qoidani inobatga olib ish yuritilganda, o'quvchilarga o'qish haqida to'g'ri yo'llanma beriladi. Tajribada kuzatiladigan metodik xatolardan bo'lmish til materialini o'zlashtirish yoki matnga yaqin gapirib berishni yagona o'quv vazifasi qilmasdan, matnni faoliyatda qo'llash materialiga aylantirish oldingi o'ringa chiqarilishi tavsiya etiladi. O'quvchilarga matnni o'qib axborot olishni mashq qildirish birlamchi yakuniy maqsad amalda tatbiq etilishi kerak. Bunga nutqiy amallarni bajarish bilangina erishiladi, bu jarayonda muayyan natijaga erishish ko'zda tutiladi. Matnni o'qish ma'naviy boyishga, yangi-yangi axborotlarni olishga qaratilgan o'quv-metodik tadbiridir. O'quv jarayonida o'qiganni tushunish boshqariladigan yumushdir: o'qish oldidan topshiriq berilishi shart va o'qib bo'lgandan so'ng tegishli metodik usullar qo'llanib, tushunganlik tekshiriladi. To'liq va aniq tushunganlik o'quvchilar tomonidan vazifani muvaffaqiyatli bajarish hisoblanadi. Xullas, ushbu prinsipga ko'ra o'qishning mohiyati o'quvchiga axborot yetkazishni qoidalashtirib qo'yishdir. O'qishni o'rgatish bilish jarayoni sifatida tashkil etiladi. Faqat amaliy faoliyat ko'rsatish bilan chegaralanmasdan, matn o'quvchi bilishga, yangi ma'lumot o'rganishga ham harakat qiladi. Axborot olish — bilish faoliyatini yuritishdir. Bu yerda bilish va nutqiy faoliyatning farqiga

borish kerak. Nutqiy faoliyat natijasi bilishga olib keladi. Binobarin, o'qish materiali mazmuniga e'tiborni kuchaytirish talab qilinadi. Mazmun qiziqarliligi o'quvchilarning axborot olishga intilishlarini belgilovchi, ulami maroq bilan o'qishga undovchi omil vazifasini o'taydi. Matn mazmunida va tilida oqilona me'yordagi qiyinchiliklar bo'lishi o'quvchining aqliy faoliyatini kuchaytiradi, tafakkurini astoydil ishga tushirishga sabab bo'ladi. Demak, mazkur prinsipga binoan o'quvchilar chet tilda o'qib, ayni chog'da bilish faoliyati bilan mashg'ul bo'ladilar.

O'quvchilarning ona tili va ikkinchi tilda to'plagan o'qish tajribalariga suyanib, ularga chet tilda o'qish o'rgatiladi. Dastavval, o'quvchining chet tilda o'qishga munosabati shakllantiriladi., O'qisam, o'rganaman“ degan naqlga amal qilib ish tutish zaruriyati tug'iladi. Birlamchi shart mana shudir. Til tajribasidagi nutq ko'nikmasining ko'chish hodisasiga duch kelamiz. Chet tilda harf-tovush munosabatlarining o'zlashtirilishi bilanoq o'quvchilarga ichda o'qishni taklif qila boshlash ma'quldir. Bu ikkinchi shart. Bir so'z bilan aytganda, o'qish mobaynida til tajribasining imkon boricha ishga tushirilishi talab etiladi.

O'qiganini tushunish uchun o'quvchilar o'rganilayotgan til strukturasi xususiyatlarini egallab, ularga asoslangan holda ish tutishlari kerak. Til materialini bilish, ya'ni lisoniy ko'nikmalarning hosil bo'lishi tez va to'g'ri o'qib tushunishga zamin yaratadi. Yozuvdagi alohida so'z, uning qismi (morfema), so'zlarning o'zaro joylashishi (so'z tartibi, gaplar zanjiri) kabilardan o'quvchi ko'ruv idrokida tayanch sifatida foydalanadi. Tinish belgilari va bosma harflarga (shriflarga) qarab va umumiy kontekstdan kelib chiqib, matndagi ohang, to'xtamva mantiqiy urg'u haqida tasavvur paydo bo'ladi. Yordamchi so'zлами bilishning ham o'qishga nafi tegadi. Bu prinsip o'rganilayotgan til strukturasi dan yetarlicha xabardor bo'lishni taqozo etadi.

O'qishni o'rgatishda nafaqat retseptiv, shuningdek, reproduktiv faoliyat ham ishtirok etadi. O'qish, odatda, retseptiv nutq faoliyati deyiladi. Lekin o'qish jarayoni retseptiv operatsiyalar bilan bir qatorda reproduktiv operatsiyalami ham o'z ichiga oladi. Grafik material idroki chog'ida ichda gapirish sodir bo'ladi. Binobarin, talaffuz ko'nikmasi o'qish texnikasiga ta'sir qiladi va matnni tushunishga daxldorligi ham ma'lum bo'ladi. Gapirganda, o'quvchi grammatik hodisani ayta olish ko'nikmasiga egaligi tufayli unda matndagi grammatik shakllami oldindan fahmlash imkoniyati yaratiladi. Ko'rinib turibdiki, retsepsiya va reproduksiya. o'zaro bog'langan nutq hodisalaridir. O'qishni o'rgatish chog'ida retseptivdan tashqari reproduktiv nutq bilan ham shug'ullanish ushbu prinsip talabidir.

O'qish nutq faoliyati turi maqomida xizmat o'tar ekan, uning amal qilish usullarini o'quvchilar egallab olishlari kerak bo'ladi. Faoliyatning jarayon tomonini ta'minlovchi operatsiyalarni bilish zarur. Ulardan birinchisi texnikaviy ko'nikma tarzida idrok etiladigan matnni tushunib yetish bilan bog'liq. Ma'no „chaqish“ usullarini o'quvchi bilib olsa, o'qish tezligi shakllanadi. O'qish tezligi maxsus mashq qilish natijasida oshiriladi. Yagona maqsad o'qish tezligini o'zlashtirish bo'lib qolmasdan analitik (tafsilotlami ilg'ash) operatsiyalami qo'llash ko'zlanadi, ya'ni undan mazmunni payqash maqsadida foydalaniladi. Sekinroq va tez o'qish ko'nikmalari axborot olishda o'mi bilan ishlatiladi. Texnikaviy ko'nikmalar, xususan, tegishli maromda o'qish axborotni o'zlashtirish yo'lidagi zaruriy qadam ekanligi mazkur prinsipdan anglanadigan tushunchadir. Har bir ta'lim bosqichida o'ziga xos xususiyatlar bilan o'qish amaliyoti joriy etiladi. Boshlang'ich davrda tanish material asosida matn, o'rta bosqichda tanish birliklar va qisman notanish so'zlar kirgan matnlar, yuqori bosqichda esa ko'proq potensial lug'at ishtirokida matnlar o'qish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Solovova E.N. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Ma'ruzalarning asosiy kursi. - M.: Ta'lim, 2002 - 238 b.
2. Saxarova I.I. Chet tilini o'qitish metodikasi. O'quvchi. - M.: Ta'lim, 1999 - 203 b.
3. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 2012.-59-60 b.
4. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
5. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
6. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
7. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
8. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
9. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
10. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
11. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
12. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
13. ЯХШИБОЕВА, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).